GUL NOMLARINING ETIMOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Xudoyberdiyeva Xurinisa Abdulaziz qizi

Annotatsiya: Tilshunoslik fanida so`zlarning kelib chiqishi bilan shug`ullanadigan bo`lim hisoblanadi. Har bir so`zning o`z yaratilish tarixi bo`lgani kabi gul nomlarining ham yaratilish tarixi mavjud. Biz quyida gul nomlarining tarihxiga oid ma'lumotlar bilan tanishib chiqamiz.

Kalit so`zlar: etimologiya, qiyosiy-tarixiy usul, fonetik qonuniyatlar, morfologik qoidalar, struktura.

Kirish: Etimologiya (ἔτυμον — haqiqat va λόγος [logiya] — so‘z; so‘zning haqiqiy ma’nosi)-1) so‘z va morfemalarning kelib chiqishini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi; 2) so‘zning kelib chiqishini aniqlashga qaratilgan tadqiqot usullari majmuyi; 3) so‘zning kelib chiqishi. XIX asr tilshunosligida "Etimologiya" termini "grammatika" ma’nosida ham qo‘llangan.

Asosiy qism: Tilshunoslik bo‘limi hisoblangan etimologiyaning asosiy vazifasi qadimiy manbalarni hamda til lug‘at tarkibining shakllanish jarayonini va uning dastlabki, qadimiy holatini tiklashdan iborat. Har bir til leksikasida muayyan miqdordagi so‘zlar borki, ularning shakli bilan ma’nosi o‘rtasidagi bog‘liqlik shu til egalari uchun tushunarsiz bo‘lib qolgan, chunki so‘zning tarixan o‘zgara borishi uning dastlabki shakl va ma’nosini xiralashtirib qo‘yadi, bunday so‘z strukturasini tildagi mavjud yasalish qoliplari orqali izohlab bo‘lmaydi. Etimologik tahlilning maqsadi muayyan so‘zning qachon, qaysi tilda, qanday yasalish qolipi bo‘yicha, qaysi til materiali asosida qanday shakl va ma’noda paydo bo‘lganini aniqlashdir. Etimologik tahlilning asosiy metodi qiyosiy-tarixiy usul bo‘lib, u fonetik qonuniyatlar, morfologik qoidalar, morfologik o‘zgarishlarga tayanib ish ko‘radi. Bunday tadqiqot natijalari til tizimi va strukturasidagi turli jarayonlarni hamda so‘zlarning etimologik ma’nolarini aniqlashda, etimologik lug‘atlar tuzishda ahamiyatlidir. Muayyan til uchun o‘zlashma hisoblangan so‘zlar Etimologiyasini aniqlash unchalik qiyin emas. Masalan, hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanayotgan "lola", "nastarin", “nomozshomgul" kabi so‘zlarning fors tiliga mansubligi, o‘sha tildagi (dastlabki) ma’nosini aniqlash uchun leksikografik izlanish — tegishli tillar (arab, fors, yunon) lug‘atlarini solishtirish kifoya qiladi.

Tillardagi so‘zlarning dastlabki kelib chiqish ma’nosi etimologik lug‘atlarda beriladi. Ensiklopedik nashrlarda, jumladan, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida, odatda, boshqa tildan o‘tgan so‘zlargagina etimologiya ko‘rsatiladi. O‘zbek tilshunosligiga bag‘ishlangan bir qator tadqiqotlarda va ayrim sohalar bo‘yicha tuzilgan lug‘atlarda etimologik izlanishlar mavjud bo‘lsada, Etimologiya to‘la ma’nodagi fan sohasi sifatida shakllanib yetmagan. Prof. Sh.Rahmatullayevning keyingi yillardagi tadqiqot va lug‘atlari bu sohadagi dastlabki tajribalar hisoblanadi. Etimologik lug'atlarda asosan so'zning kelib chiqishi haqida keng ma’lumotlar beriladi. Shavkat Rahmatullayev 2000-yili “O`zbek tilining etimologik lug`ati” (1-jild), 2003-yil yili “O`zbek tilining etimologik lug`ati” (2-jild), 2009-yili esa yili “O`zbek tilining etimologik lug`ati” (3-jild) kitobini nashr ettiradi. Muallif bu kitoblarni yaratish uchun ko`p harakat qildi, ko`plab adabiyotlar bilan tanishdi. Ushbu kitoblarda barcha so`zlar qatori ayrim gul nomlari etimologiyasi ham ifodalangan. Ushbu nomlarga to`xtalib o`tamiz.

Binafsha- bu ot PRC da *baynafshe* shaklida, TjRC da *binafsha* shaklida keltirilib, “fialka” deb izohlangan; Budag`ov lug`atida *banafsha* shaklda keltirilib, forscha deyilgan, “fialka” ma’nosini anglatishi aytilgan . Ko`rinadiki forscha *baynafsha* oti o`zbek tiliga a tovushini i

tovushiga almashtirib olingan. *Binafsha* asli sifat bo`lib, keyinchalik shu rangdagi chechakni anglata boshlagan. Bu ot o`zbek so`zlashuv tilida *gunafsha* shaklida ham aytiladi.[1]

Chechak-"gul". ***Supaning uch tarafiga yoz gullari ekilgan, rayhon va boshqa chechaklar atrofga o`z atriyotlarini anqitib yotar edi.(Abdulla Qodiriy).*** Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu ot asli **chachak** tarzida talaffuz qilingan, keyinroq birinchi bo`g`indagi a unlisi e unlisiga almashgan.(Devon I, 369) **chachak>chechak.**

Qizg`aldoq**-bahorda ochiladigan lolasimon gulli yovvoyi o`t. ***Mol boqib yurgan bolalar qurigan lolaqizg`aldoq va chuchmomalarni o`zlariniki qilishga talashib yuguradilar. (*Abdulla Qodiriy). **Lolaqizg`aldoq** qo`shma so`zi tarkibida qatnashadigan bu ot asli qadimgi turkiy tilda **'qizil tus ol'** –ma'nosini anglatgan **qiz** felining eski o`zbek tilida kuchaytirish ma'nosini ifodalovchi- **g`a** qo`shimchasini hamda **'o`zlik'** ma'nosini ifodalovchi-**l** qo`shimchasini qo`shib hosil qilingan shaklidan **–daq** qo`shimchasi bilan yasalgan, keyinchalik ikkinchi bo`g`indagi **a unlisi **a** unlisiga, **q** undoshi oldigagi **a** unlisi **a** unlisiga almashgan ы unlisining qattillik belgisiga yo`**qolgan**.

Sunbul- bu so`z **sunbul (un)** shakliga ega, asli `boshoq chiqardi` ma'nosini anglatuvchi **sanbala** felining masdari bo`lib, arab tilida "boshoq", "lola" ma'nosini anglatadi, o`zbek tilida "qora rangli xushbo`y o`simlik" ma'nosini, ko`chma ma'noda esa "sevgilining sochi" ma'nosini anglatadi. So`zlashuv tilida bu so`z **sumbul** tarzida ham talafuz qilinadi.

Za'faron- bu so`z arab tili lug`atida yozilgan o`zi **zafaran(un)** shaklida kiritilib, shafran o`simligining nomi ekani aytilgan, **za'far** shakli keltirilmagan. PRC da ham faqat **za'faron** so`zi berilib, **za'far** so`zi berilmagan**. TjPCda** esa za'faron so`zidan tashqari, za'far so`zi ham keltirilgan va za'faron so`zidan za'far so`ziga havola berilgan. PRCda va TjPCda za'faron so`zidan yasalgan za'faroni sifati ham keltirilgan. Lug`atlarni qiyoslashdan ma'lum bo`ladiki, za`faron so`zi oxiridagi –on qismi kichraytirish-erkalash ma'nosini ifodalovchi qo`shimchaga teng; bu qo`shimcha qo`shilgan qism esa dorivor o`simlikning nomi; ayn harfi bilan ezilishiga ko`ra bu so`z-arabcha, lekin ARCda bunday so`z keltirilmagan. Za'faron so`zi o`zbek tilida "to`q sariq gulli dorivor o`simlik" ma'nosini anglatadi, qo`shma ma'noda "sariq" ma'nosini anglatishga hizmat qiladi.

JASMIN-bu so`z O`TILda arabcha deb belgilanadi. ARCda bu so`z o`zakka bog`lanmay, yakka o`zi **Yasmin**(un) va **Yasmin**(un) shakllarida keltirilgan. Bunday shakllarda berilishi ushbu so`z arabcha emasligini ko`rsatadi. Haqiqatda, bu so`z Ushakov lug`atida forscha deb ta'kidlangan. **Jasmin** so`zi TjRSda yasaman so`zi berilib, bu so`zdan yas so`ziga havola qilingan, u yerda bu so`z **yas** va **yasaman** shakllarida keltirilgan. Ko`rinadiki, bu so`z asli eroniy bo`lib, yasaman shakliga ega, tojik tilida a unlisi a unlisiga, ikkinchi bo`g`indagi a unlisi u unlisiga almashgan: yasuman, o`zbek tilida shu shaklida o`zlashgan. PRS asosida bu so`z asli yas so`ziga –**man** qismini qo`shib hosil qilingan deyish mumkin, unda yas so`zi asli o`tkir hushbo`y hid ma'nosini anglatgan. –**man** qismi esa asli –**mand** shakliga ega bo`lib, keyinchalik uning oxiridagi d tovushi talafuz qilinmay qo`ygan bo`lsa kerak. Xullas, O`TILga **yasmin** so`zi kiritilmasligi lozim edi, chunki bu so`z tojikcha **yosuman** so`zining ruscha talaffuz shakliga teng, O`TILga **yosuman** so`zining o`zini kiritish kifoya. Bu so`z asli xushbo`y, oq, gulli manzarali buta ma'nosini anglatadi.[2]

[1] Rahmatullayev.Sh.O`zbek tilining etimologik lug`ati.1-jild.-Toshkent:2000,-B.105

[2] Rahmatullayev.Sh.O`zbek tilining etimologik lug`ati.2-jild.-Toshkent:2003,-B.123.

GULBEOR- bu ot asli tojikcha *guli beor* izofa brikmasiga teng bo`lib, -I izofasi aytilmay qo`yganidan keyin qo`shib yoziladigan bo`lgan. Gul oti (q) va beor sifatidan tarkib topgan bu ot “har qanday joyda, sharoitda o`saveradigan o`tsimon gul” ma`nosini anglatadi. (O`TIL, I, 196)

KARNAYGUL- bu ot o`zbek tilida tojikcha *kornay* va *gul* otlaridan tuzilgan bo`lib, “ guli karnay shakliga ega chirmovuq” ma’nosini anglatadi. So`zlashuv tilida *r* tovushini *n* tovushiga almashtirib *kannaygul* tarzida aytiladi.[3]

**LOLAQIZG`ALDOQ**- bu ot “bahorda ochiladigan qizil, sariq, targ`il rangli gul” ma’nosini anglatadigan tojikcha *lola* oti bilan o`zbekcha *qizg`aldoq* otidan tuzilgan bo`lib, ‘bahorda ochiladigan lolasimon gull yovvoyi o`t’ ma’nosini anglatadi.

MINGDEVONA- bu ot o`zbekcha ming sanoq soni bilan tojikcha devona sifatidan tashkil topgan bo`lib, “hidi odamni tantiratadigan zaharli o`t” ma’nosini anglatadi.

NOMOZSHOMGUL- bu ot o`zbek tilida tojikcha *nomozshom* oti bilan gul otini qo`shib tuzilgan bo`lib, “kechki payt ochilib, ertalab yopiladigan gul” ma’nosini anglatadi.

NILUFAR- bu ot PRSda *(nilufar), (nilu-barg), (nilu-par)* shakillarida keltirilgan. Ushbu lug`atda nilu qismi *(nil), (nili)* shakillarida kiritilib, *“ko`k”, “to`q ko`k”* ma’nosini anglatishi aytilgan, *far* qismi “*yarqirash”, “chiroy”* ma’nosini anglatadi. Shu izohlarga ko`ra *nilufar* asli *“ko`k rangli, chiroyli”* ma’nosini anglatib, “*suvda o`sadigan, chiroyli yirik gulli o`simlik”ning* nomi sifatida ishlatiladi.

Yuqorida keltirilgan gul nomlari etimilogik lug`atda o`z ifodasini topgan. Lug`atlarda keltirilmagan gul nomlari ham bor. Kelajakta ular ham etimologik lug`at tarkibida o`z o`rniga ega bo`ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Rahmatullayev.Sh. O`zbek tilining etimologik lug`ati. 1-jild.-Toshkent: 2000,-B.105
2. Rahmatullayev.Sh.O`zbek tilining etimologik lug`ati.2-jild.-Toshkent: 2003,-B.123.
3. Rahmatullayev.Sh.O`zbek tilining etimologik lug`ati.3-jild.-Toshkent: 2006,-B.354
4. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Toshkent: Fan, 1985. – 200 b.
5.Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2000. – 1-ж. – Б. 484-485.
6.Набиев М., Одилов Т., Пратов Ў., Шерматов Ғ. Қизиқарли ботаника. – Тошкент: Ўзбекистон, 1975. – Б. 219.

[3] Rahmatullayev.Sh.O`zbek tilining etimologik lug`ati.3-jild.-Toshkent:2006,-B.354